



O'ZBEKISTONDA PREZIDENT VA IJOD MAKTABLARI: YANGI AVLOD YETAKCHILARINI TARBIYALAYOTGAN TA'LIM MODELI

*Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi
tarbiyachi-pedagogi*

Umarjonova Kamola Uralovna

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

Mahliyo Xoliqulova

[*kamola20078586@gmail.com*](mailto:kamola20078586@gmail.com)

Аннотация. Mazkur ishda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan Prezident va ijod maktablarining ta'lim tizimidagi o'rni, ularning tashkil etilish maqsadi hamda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu maktablarning zamonaviy ta'limni rivojlantirish, yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish hamda mamlakat taraqqiyotiga qo'shayotga hissasi yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Prezident va ijod maktablari kelajakda O'zbekistonning intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Калит so'zlar: Prezident maktablari, ijod maktablari, ta'lim tizimi, moderinizatsiya, innovatsiya, globallashuv, svilizatsiya, pedagogika.

Аннотация. В данной работе анализируется роль президентских и творческих школ, созданных в Республике Узбекистан, в системе образования, цели их создания и их значение в поддержке талантливой молодежи. Также подчеркивается вклад этих школ в развитие современного образования, повышение научно-творческого потенциала молодежи и содействие развитию страны. Результаты исследования показывают, что президентские и творческие школы будут играть важную роль в повышении интеллектуального потенциала Узбекистана в будущем.



Ключевые слова: президентские школы, творческие школы, система образования, модернизация, инновации, глобализация, цивилизация, педагогика.

Abstract. This work analyzes the role of the Presidential and Creative Schools established in the Republic of Uzbekistan in the education system, the purpose of their establishment, and their importance in supporting talented youth. It also highlights the contribution of these schools to the development of modern education, increasing the scientific and creative potential of young people, and contributing to the development of the country. The results of the study show that the Presidential and Creative Schools will serve as an important factor in increasing the intellectual potential of Uzbekistan in the future.

Keywords: Presidential schools, creative schools, education system, modernization, innovation, globalization, civilization, pedagogy.

Kirish. XXI asrda davlatlarning global raqobatbardoshligi ko'p jihatda ta'lim tizimining sifati bilan belgilanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: □ Yangi O'zbekistonni barpo etishda eng katta tayanchimiz □ bilimli, tafakkuri keng va tashabbuskor yoshlarimizdir. □ Mazkur konseptual yondashuv zamonaviy ta'lim paradigmasining tub mohiyatini ifodalaydi [3]. O'zbekistonda Prezident va ijob maktablari tashkil etilishi milliy ta'lim tizimida innovatsion model sifatida namoyon bo'lib, intellektual salohiyatni rivojlantirish, kreativ fikrlashni shakllantirish hamda liderlik kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu ta'lim muassasalari kognitiv rivojlanish, metakognitiv strategiyalar va shaxsning psixoemotsional barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan integrativ yondashuv asosida faoliyat yuritadi [4]. Mavzuning dolzarbligi globallashuv sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ijtimoiy-kasbiy adaptatsiyani kuchaytirish hamda innovatsion tafakkurga ega yangi avlod yetakchilarini shakllantirish zarurati



bilan belgilanadi. Shu bois Prezident va ijod maktablari ta'lim tizimining strategik rivojlanishida muhim institut sifatida alohida ilmiy tahlilni talab etadi [5].

So'nggi yillarda O'zbekiston ham ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirdi. Ana shu islohotlarning eng muhimlaridan biri □ Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tizimining yaratilishidir. Bu maktablar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida tashkil etilib, mamlakatning eng iqtidorli yoshlariga zamonaviy, xalqaro standartlarga mos ta'lim berishiga qaratilgan [6].

Prezident maktablari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son [qarori](#)¹ bilan tashkil etilgan bo'lib, ular iqtidorli o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ushbu maktablar zamonaviy ta'lim texnologiyalari, innovatsion metodlar hamda xalqaro ta'lim standartlari asosida faoliyat yuritadi. Bugungi kunda mamlakatda 14 ta Prezident maktabi faoliyat yuritmoqda. Bu maktablarda ta'lim quyidagi yo'nalishlarga asoslangan:

- STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics);
- tanqidiy fikrlash;
- ilmiy tadqiqot;
- innovatsion texnologiyalar;
- loyiha asosida ta'lim.

Natijada o'quvchilar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lmoqda. Qolaversa, bu maktab o'quvchilari dunyoning eng nufuzli universitetlariga qabul qilinmoqda. Ular orasida:

- Harvard University;
- Princeton University;

¹ <https://lex.uz/docs/-4208152>



–Colifornia Institute of Technology;

–University College London kabi dunyoning TOP universitetlari mavjud. Ko'plab o'quvchilar to'liq grant asosida o'qishga kirgan. So'nggi yillarda Prezident maktablari xalqaro miqyosda katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Bu natijalar mazkur ta'lim tizimining samaradorligini yaqqol ko'rsatadi. Prezident maktablari o'quvchilari xalqaro fan olimpiadalarida 6 ta oltin, 17 ta kumush va 34 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi. Bu yuruqlar quyidagi olimpiadalarda qo'lga kiritilga²:

–Xalqaro matematika olimpiadasi;

–Xalqaro fizika olimpiadasi;

–Xalqaro biologiya olimpiadasi;

–Xalqaro iqtisodiyot olimpiadasi.

Xususan, 2023-2024-o'quv yilida Prezident maktablari bitiruvchilarining 65 foizi nufuzli universitetlariga qabul qilindi. Birgina Jizzax shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi 120 dan ortiq xorijiy universitetlardan taklif olib, umumiy qiymati 6 million dollardan ortiq grant yutgan. Bunday natijalar O'zbekiston ta'lim tizimida yangi davr boshlanganligini ko'rsatadi.

2023-2024 o'quv yilida ijod maktablarining 263 nafar bitiruvchisi ta'limni muvaffaqiyatli tamomlab, oliy ta'lim muassalariga qabul qilingan. Ijod maktablari o'quvchilari nafaqat adabiy tanlovlarda, balki intellektual musobaqalarda ham faol qatnashmoqda. Masalan, Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi jamoasi respublika miqyosida o'tkazilgan □Zakovat□ intellektual turnirida 1-o'rinni egallagan. Bundan tashqari bu maktab bitiruvchisi Shahlo Tursunova Qozog'istonning Nazarbayev Universityga to'liq grant bilan qabul qilindi. Bugungi kungacha Jizzax shahrida joylashgan Hmid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi 2025-yilda respublika bo'yicha oliy ta'limga kirish imtihonlarida eng yuqori ball (o'rtacha 178,39) to'plagan maktablar reytingida 2-o'rinni egalladi □ bu ko'rsatkich ijod

² https://uza.uz/uz/posts/prezident-maktabi-yutuqlar-salmogi-yildan-yilga-ortmoqda_76221



maktabi bitiruvchilarining akademik tayyorgarligi juda yuqori ekanligini ko'rstadi. Qolaversa, maktab o'quvchisi Farangiz Abdusalomovaning ijodiy ishlari Ozarbayjonda nashr etilgan xalqaro antalogiyada chop etildi va JustFiction Edition jurnalida e'lon qilindi, bu o'quvchilarning ijodiy salohiyatining xalqaro miqyosda e'tirof etilishidir. Bu maktablarda o'quvchilar nafaqat umumta'lim fanlarini, balki adabiyot, jurnalistika, dramaturgiya, badiiy tarjima kabi yo'nalishlarni ham chuqur o'rganadilar.

Xulosa. Prezident va ijod maktablari nafaqat yuqori saviyali ta'lim berish, balki kelajakda mamlakatning ilmiy, texnologik va madaniy rivojiga xizmat qiladigan kadrlarni tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Birinchidan, ushbu maktablar iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, mazkur maktablarda qo'llanilayotgan zamonaviy ta'lim metodlari umumta'lim maktablari uchun ham namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Uchinchidan, Prezident va ijod maktablari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga va ilmiy izlanishlarga undaydi. Bunday ko'nikmalar esa zamonaviy jamiyatda juda muhim hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, mazkur maktablarning faoliyati nafaqat ta'lim tizimini rivojlantirishga, balki mamlakatning ilmiy, texnologik va madaniy taqaqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi. Shu sababli Prezident va ijod maktablari kelajakda O'zbekistonning intellektual salohiyatini oshirishda muhim ro'l o'ynashi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi "Ijod maktablari to'g'risida"gi qarori.



3. Otamuratov, R. U. (2023). Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarning aloqasi. *MedUnion*, 2(1), 177-182.

4. Отамуратов, Р. У. (2021). Ўқувчиларда касбий мотивациялар шаклланишининг психологик омиллари. *Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғундиги*, 282.

5. Uskanovich, O. R. (2022). Psixologiyada xavotirlanishning ilmiy-psixologik xususiyatlari. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 494-498.

6. www.ziyonet.uz